

**QISHLOQ XO‘JALIGIDA BILIM VA INNOVATSIYALAR
MILLIY MARKAZI
TOLALI EKINLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.08/2025.27.12.T.14.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOLALI EKINLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

MANNOPOV BEXZOD ABDUMALIKOVICH

**PAXTA TOLASINI XALQARO KLASSIFIKASIYA BO‘YICHA
MIKRONEYR KO‘RSATKICHI, PISHIB ETILGANLIGI VA CHIZIQLI
ZICHLIGINI O‘LCHAYDIGAN UNIVERSAL PRIBORINI ISHLAB
CHIQISH**

**05.06.02–“To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xom-ashyoga dastlabki ishlov
berish”**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical Sciences**

Mannopov Bexzod Abdumalikovich

Paхта tolasini xalqaro klassifikatsiya bo‘yicha mikroneyr ko‘rsatkichi, pishib yetilganligi va chiziqli zichligini o‘lchaydigan universal priborini ishlab 3

Маннопов Бехзод Абдумаликович

Разработка универсального прибора для измерения микрометрического индекса, степени зрелости и линейной плотности для международной классификации хлопкового волокна..... 21

Mannopov Bexzod Abdumalikovich

Development of a universal instrument for measuring the micronire indicator, ripeness and linear density for the international classification of cotton fiber..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 44

**QISHLOQ XO‘JALIGIDA BILIM VA INNOVATSIYALAR
MILLIY MARKAZI
TOLALI EKINLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.08/2025.27.12.T.14.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOLALI EKINLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

MANNOPOV BEXZOD ABDUMALIKOVICH

**PAXTA TOLASINI XALQARO KLASSIFIKASIYA BO‘YICHA
MIKRONEYR KO‘RSATKICHI, PISHIB ETILGANLIGI VA CHIZIQLI
ZICHLIGINI O‘LCHAYDIGAN UNIVERSAL PRIBORINI ISHLAB
CHIQISH**

**05.06.02–“To`qimachilik materiallari texnologiyasi va xom-ashyoga dastlabki ishlov
berish”**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/T5700 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya "Tolali ekinlar ilmiy tadqiqot instituti" da bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (uzbek, rus va ingliz (rezyume)) "Tolali ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti" huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida <http://teiti.uz/> va "ZiyoNet" axborot talim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Axmedov Akmal texnika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim
Rasmiy opponentlar:	Djamolov Rustam Kamolidinovich texnika fanlari doktori, professor Marufxanov Bekzadxan Xayrullayevich texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Yetakchi tashkilot:	O'zbekiston tabiiy tolalar ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Tolali ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi DSc.08/2025.27.12.T.14.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 24 iyul soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY O'zPITI ko'chasi, PSUYAITI. Tel.: (+99871) 207-04-03; faks: (+99871) 256-04-21; e-mail: info@teiti.uz (Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va etishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti binosi, 4-qavat, 430-xona).

Dissertatsiya ishi bilan Tolali ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (ro'yhatdan o'tgan 52-son). 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY O'zPITI ko'chasi, PSUYAITI. Tel.: (+99871) 207-04-03.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 14 iyul kuni tarqatildi.
(2026 yil 14 iyul 52-raqamli reyestr bayonnomasi).



Q. Jumaniyazov
Ilmiy daraja beruvchi
ilmiy kengash raisi,
t.f.d., prof.

M.R. Mo'minov
Ilmiy daraja beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
t.f.f.d., k.i.x.

R.Sh. Sulaymonov
Ilmiy daraja beruvchi
ilmiy kengash huzuridagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda iqtisodiyot barqarorligining rivojlanishida qishloq xo‘jaligi va unga bog‘liq qayta ishlash sanoatini qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. «Dunyo miqyosida xususan, to‘qimachilik sanoati uchun asosiy xom ashyo hisoblangan paxta tolasining sifati mamlakat iqtisodiyotida eksport salohiyatini oshirib milliy brendimizni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan, paxta xom ashyosi va uning tola sifat ko‘rsatkichlarini ilmiy asosda baholash hamda ularni aniqlovchi zamonaviy qurilmalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda paxta tolasini aniqlash uchun resurstejamkor texnologiyalar va texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, bir qator ilg‘or uskunalar — HVI (High Volume Instrument), Spinlab, Textechno, Premier ART, USTER AFIS PRO kabi tizimlar qo‘llanib kelmoqda. Ushbu uskunalar paxta tolasining mikroneyni, uzunligi, pishib yetilganligi va boshqa parametrlarini yuqori aniqlikda o‘lchaydi. Biroq, ushbu uskunalarning yuqori narxi, texnik xizmat ko‘rsatish murakkabligi, import ehtiyot qismlariga bog‘liqlik hamda mahalliy iqlim va sharoitga mos emasligi ularni ommaviy qo‘llash imkoniyati cheklanganligiga alohida e‘tibor berilmoqda

Respublikamiz dunyodagi yetakchi paxta ishlab chiqaruvchi davlatlar qatorida bo‘lib, tola sifatini yuqori darajaga olib chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 sonli Farmonida, bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan Milliy iqtisodiyot barqarorligi ta‘minlash va yangi ichki mahsulotda sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish maqsad qilinib, bunda to‘qimachilik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko‘paytirish...”¹ vazifasi belgilab berilgan.

Mamlakatda paxta tolasining fizik va texnologik ko‘rsatkichlarini baholash bo‘yicha xalqaro talablarga mos laboratoriya tizimi va texnik va texnologik jihatdan modernizatsiyalashgan mashinalarni yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-iyuldagi PQ-308-son “Paxta hosildorligini oshirish, paxta yetishtirishda ilm va innovatsiyalarni joriy qilishning qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF 60-son “2022-2026 yildagi mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni.

rivojlanishning II "Energyetika, energiya va resurstejamkorlik" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Paxta tolasining mikroneyr ko'rsatkichi, pishib yetilganlik (Maturity) va chiziqli zichligi (linear density) bo'yicha tadqiqotlar juda ko'p xorijiy olimlardan: Lord E., Boylston E.K., Thibodeaux D.P., McAlister D.D., David R., (AQSH), Schneider H., Guntram K., (Germaniya) H.Haigler., Xu B., & Wang, K., Zhang J., Li W., (Xitoy), Ramesh. M., Ghosh A., va Sen. K., R. Chattopadhyay (Hindiston)., Frydrych R., Pettigrew J., (Avstraliya) va mamlakatimiz olimlaridan A.E. Egamberdiyev., U.Matmusayev., M.Kulmetov., M.Sh. Muhammadiyev., E.T.Maksudov., A.Axmedov., Sh.X.Xoliqov., B.Q.Begmatov., S.X. Hamidov., R.A.Gulyayev va V.Ye.Ustyuginlar paxta tolasining sifat ko'rsatkichlarning aniqlash usullari bo'yicha izlanishlar olib borishgan.

Xorijiy va mahalliy olimlarimiz tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan ma'lum bo'ldiki, bugungi kunda paxta tolasinin mikroneyr ko'rsatkichini o'lchash uchun qo'llaniladigan mahalliy, energiya tejovchi va avtomatlashtirilgan qurilmalarning konstruksiyalarini ishlab chiqish masalalari o'zining to'liq yechimini topmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti "Paxtasanoat ilmiy markazi" aksionerlik jamiyatining I-2015-2-11 sonli "Paxta tolasini tozalash qurilmasiga resurstejamkor kolosnikli panjarani va paxta tolasining mikroneyr ko'rsatkichini o'lchash uchun avtomatlashtirilgan akustik asbobni ishlab chiqarishga tadbiq etish" davlat granti va "Paxtasanoat ilmiy markazi" AJning 1515-sonli "Paxta va paxta tolasinig sanoat navi ko'rsatkichlarini aniqlash uchun unifikatsiyalangan akustik pribori yangi avlodining ikki tajriba-sanoat namunasini ishlab chiqish va uni o'lchov vositalarining davlat reyestriga kiritish maqsadida attestatsiya sinovlarini o'tkazish uchun normativ-texnik hujjatlarni tayyorlash" bo'yicha ilmiy-tadqiqot rejalari bo'yicha amalga oshirilgan.

Tadqiqot maqsadi. Paxta tolasining mikroneyr ko'rsatkichi, pishib yetilganligi va chiziqlik zichligini o'lchaydigan zamonaviy energiya va resurstejamkor mobil sharoitda olib yuradigan akustik universal priborini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

tolaning mikroneyr ko'rsatkichi, pishib yetilganligi va chiziqli zichligini o'lchaydigan bugungi kunda mavjud tizim va priborlarni o'rganib, ularni ishlash prinsipini tahlil qilish;

paxta tolasini sifat ko'rsatkichlarini aniqlashda tovush o'tkazuvchanlik (akustik) usullari bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlarni olib borish.

paxta tolasining mikroneyr ko'rsatkichini aniqlashda aniqlik darajasi yuqori bo'lgan zamonaviy avtomatlashtirilgan universal priborning parametrlarini ko'p omilli tajribalar asosida aniqlash;

mikroneyr ko'rsatkichi, pishib yetilganligi va chiziqli zichligini o'lchovchi universal priborini ishlab chiqarish sinovlarini o'tkazish, iqtisodiy samaradorlikni hisoblash.

Tadqiqot ob'yekti sifatida paxta tolasining mikroneyr ko'rsatkichi, pishib yetilganligi va chiziqli zichligini akustik usulda o'lchash priborining tajriba sinov namunasi olingan.

Tadqiqot predmeti sifatida paxta tolasining mikroneyr ko'rsatkichi pishib yetilganligi va chiziqli zichligi ko'rsatkichlari akustik usul va qurilmaning parametrlari, ish rejimlari hamda o'lchov natijalariga ta'sir etuvchi omillar, priborning konstruktiv parametrlarini aniqlash imkonini beruvchi matematik modellar olingan.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda tizimli va mantiqiy tahlil, matematik statistika, tarkibiy tahlil va algoritmlashtirish usullari, tajriba natijalarini rejalashtirish va tajriba sinovlari natijalarini qayta ishlash, kompyuter grafikasi, eksperimental to'qimachilik materialshunosligi va akustik usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

paxta tolasining mikroneyr ko'rsatkichi, pishib yetilganlik koeffitsiyenti va chiziqli zichligini bir vaqtning o'zida aniqlash imkonini beruvchi akustik usulga asoslangan energiya va resurstejamkor universal pribor ishlab chiqilib, ko'rsatkichlarini o'zaro bog'liqligini aks ettiruvchi jadval tuzilgan;

paxta tolalarining akustik harakatini ifodalovchi differensial tenglama ishlab chiqilib, uning asosida mikroneyr ko'rsatkichini baholashning matematik modeli yaratilgan;

turli chastotalar ta'sirida akustik kamerada amplituda va energiya taqsimlanishining o'zgarish qonuniyatlari aniqlanib, o'lchash aniqligini ta'minlovchi kameraning rasional geometrik parametrlari asoslangan;

universal priborning asosiy texnologik parametrlari (ishchi kamera hajmi, namuna massasi, akustik signal chastotasi va o'lchash vaqti) ko'p omilli eksperimentlar asosida optimallashtirilgan va yuqori aniqlikda o'lchash rejimlari belgilangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Paxta tolasining sifat ko'rsatkichlarini o'lchaydigan energiya va resurstejamkor texnologiyalarni qo'llash asosida tolaning tovush o'tkazuvchanlik darajasi bo'yicha innovasion akustik pribori yaratilgan.

Priborda kerakli aniqlikni ta'minlovchi ish rejimlari (namuna massasi, ishchi kameraning parametrlari, tovush chastotasi, sarflanadigan quvvat, o'lchash vaqti) optimallashtirilgan.

Paxta tolasining mikroneyr ko'rsatkichi, chiziqli zichligi va pishib yetilganligini o'lchash priborining tajriba-sanoat namunasini ishlab chiqilib, sinovdan o'tkazilgan bo'lib seriyali ishlab chiqarish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Olingan natijalarning ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy usul va o'lchash vositalaridan foydalangan holda o'tkazilganligi, nazariy va eksperimental tadqiqotlarning o'zaro adekvatligi, bajarilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan akustik universal priborida o'tkazilgan sinovlarining ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ilmiy tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati shundaki, paxta tolasining mikroneyr ko'rsatkichi, pishib yetilganligi va chiziqli zichligini akustik o'lchash usulida yangi universal priborining ishchi organlarini harakatini ifodalovchi dinamik va matematik modellarini olish, masalalarni sonli yechimlari asosida tavsiya qilingan priborning ishchi organlarini harakat qonunlarini, parametrlarini bog'lanish grafiklarini, harakat rejimlarini,

texnologik, kinematik va dinamik parametrlarini optimal qiymatlarini aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiya ishining amaliy ahamiyati shundaki, u paxta tolasi fizik-mexanik xossalari aniqlashning milliy texnologik bazasini yaratishga, import o'rnini bosuvchi mahalliy ilmiy-texnikaviy yechimni ishlab chiqish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Paxta tolasining sifat ko'rsatkichlarni aniqlash uchun zamonaviy universal pribor ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

universal priborni paxta to'qimachilik klasterlari tizimidagi "Boyovut Cotton Textile" MCHJ ga qarashli paxta tozalash korxonasi va to'qimachilik fabrikalariga joriy qilingan. ("O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari" uyushmasining 2026 yil 4 iyundagi №02/22-26-sonli ma'lumotnomasi). Natijada priborning resurstejamkorligi korxonada bugungi kundagi priborga nisbatan 96,9% ni, energiya tejamkorligi esa 85,7 % ni ta'minlashga erishilgan. Taklif etilayotgan priborning ish unumdorligi korxonadagiga nisbatan 1,0 barobar yuqori bo'lishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-texnik anjumanlarda, shu jumladan, 3 ta xalqaro, 2 ta Respublika konferensiyalarda va ilmiy seminarlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarini e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, shundan horijiy jurnalda 2 ta maqola nashr etilgan va O'zbekiston Respublikasi Intelektual mulk agentligiga 1 ta foydali modelga ariza topshirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 101 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslanadi, tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantiriladi, tadqiqot ob'yekti va predmeti tavsiflanadi, tadqiqotning respublika fan-texnika taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqi ko'rsatiladi; uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalarini tavsiflaydi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyatini ochib beradi, tadqiqot natijalari, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumot beradi.

Dissertatsiya ishining "**Paxta tolasining mikroneyr, pishib yetilganlik va chiziqli zichlik ko'rsatkichlarini aniqlash usullari va qurilmalarining tahlili**" deb nomlangan birinchi bobi tola sifat ko'rsatkichlarini aniqlash usullarini yaratish tarixi va bugungi holati, sifat ko'rsatkichlaridan mikroneyr ko'rsatkichining klassifikatsiyalarini ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ta'siri, paxta-tolasining sifat ko'rsatkichlarini o'lchashdagi qurilma kalibrovkasi va uning ahamiyati, ishlab chiqarishdagi mavjud tizim va qurilmalarning o'lchash usullariga sharhlari, klassifikatsiya va ularning zamonaviy holati va paxta tolasining sifat ko'rsatkichlarini aniqlash priborini ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahliliga bag'ishlangan.

Bo'limlarda paxta tolasining sifat ko'rsatkichlarini, xususan mikroneyr, pishib yetilganlik va chiziqli zichlikni aniqlash usullari hamda ularni o'lchashda qo'llaniladigan zamonaviy va an'anaviy qurilmalarning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilingan. Mikroneyr ko'rsatkichi paxta tolasining havo o'tkazuvchanligiga asoslangan kompleks indeks bo'lib, u tolaning ingichkaligi va pishganlik darajasini bir vaqtda ifodalashi bilan muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatib berildi. Shu bilan birga, ushbu ko'rsatkichni aniqlashda ISO 2403, ISO 1130 va boshqa xalqaro standartlar talablari, namuna tayyorlash va sinov sharoitlari hamda kalibrlash jarayonlarining ahamiyati batafsil yoritildi.

Tahlil jarayonida HVI, Texttechno va LPS-4 kabi tizimlar ishlash prinsipi, tuzilishi va imkoniyatlari jihatidan qiyosiy o'rganildi. Ushbu qurilmalar yuqori aniqlik va kompleks tahlil imkoniyatiga ega bo'lsa-da, ularning katta gabaritliliigi, qimmatligi, importga bog'liqligi va sinov jarayonining ko'p bosqichliliigi kabi kamchiliklari aniqlandi. Shuningdek, kalibrlashning to'g'ri bajarilishi o'lchash natijalarining ishonchliligi va takrorlanuvchanligini ta'minlashda hal qiluvchi omil ekanligi asoslab berildi.

Bob yakunida mavjud tizimlarning cheklovlari va amaliy muammolari tahlili asosida paxta tolasining sifat ko'rsatkichlarini tezkor, aniq va energiya tejankor tarzda aniqlaydigan universal o'lchov qurilmasini ishlab chiqish zarurati asoslab berildi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonlarida sifat nazoratini takomillashtirish va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning ishinig **“Universal priborda tola sifat ko'rsatkichlarini akustik usulida aniqlash jarayonini nazariy asoslash”** nomli ikkinchi bobida universal pribor yordamida paxta tolasining sifat ko'rsatkichlarini aniqlashda turli chastotalarda faza tezligini o'zgarishi, tolalarni pishib yetilganlik koeffitsiyentini o'zgarishi tolalar zichligini tovush tezligiga turli xil qiymatlarida vaqt bo'yicha o'zgarishi, universal priborida paxta tolalarini mikroneyr ko'rsatkichini aniqlashda harakat differensial tenglamasini tuzish va kamera ichidagi paxta tolalariga beriladigan turli xil chastotalar ta'sirida amplituda va enerianing o'zgarishida kamera uzunligining ahamiyati bayon etilgan.

Universal pribor orqali paxta tolasining mikroneyr ko'rsatkichi, tola kesim yuzasi va diametrlari akustik usul asosida aniqlanadi. Ushbu usulda asosiy parametr sifatida tovush to'lqinlarining fazo tezligi ϑ va uning chastotaga bog'liq o'zgarishi qabul qilingan. Tolalar muhitida tovush tarqalishi standart havoga nisbatan sekinlashadi va bu holat tolaning zichligi hamda pishib yetilganlik darajasi bilan bog'liqdir.

Standart sharoitlarda tovush tezligi $\vartheta = 343$ m/s deb qabul qilinadi. Harorat ta'sirida tovush tezligi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$\vartheta = 331.5 \sqrt{1 + \frac{t}{273.15}} \quad (1)$$

Bu yerda t — harorat ($^{\circ}\text{C}$). Shu sababli priborda harorat $20 \pm 1^{\circ}\text{C}$ va nisbiy namlik $65 \pm 2\%$ doimiy saqlanishi zarur, chunki muhit o'zgarishi akustik o'lchov aniqligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tolalar ichida tovush tarqalish fazo tezligi quyidagicha ifodalanadi:

$$v_p = \frac{c_0}{\sqrt{a_\infty}} \quad (2)$$


Bu yerda C_0 — erkin havodagi tovush tezligi, a_∞ — tola muhitining qarshilik koeffitsiyenti.

Chastotaga bog‘liq holda fazo tezligi modeli:

$$v_p(v) = v_0(1 + av) \quad (3)$$

Bu yerda v_0 — past chastotadagi fazo tezligi, a — tola strukturasi bog‘liq koeffitsiyent.

Ushbu bog‘lanish asosida fazo tezligi, chastota va tola parametrlari o‘rtasidagi korrelyatsiya tahlil qilindi. Amaliyotda past chastotali to‘lqinlar afzal hisoblanadi, chunki yuqori chastotalarda so‘nish kuchayadi va signal barqarorligi pasayadi (1-rasm).



1-rasm. Tolalarni mikroneyr ko‘rsatkichini aniqlashda past chastotali fazo tezligini turli xil qiymatlarida $v_{01} = 330 \frac{m}{s}$; $v_{02} = 340 \frac{m}{s}$; $v_{03} = 350 \frac{m}{s}$ chastotasini o‘zgarishi bo‘yicha grafigi

Qurilgan grafik fazo tezligining chastotaga bog‘liq o‘zgarish dinamikasini aks ettiradi. Tahlil natijalariga ko‘ra, chastota ortishi bilan fazo tezligi chiziqli qonuniyatga yaqin holda ortib boradi.

Grafikda $v_{01} = 330 \text{ m/s}$, $v_{02} = 340 \text{ m/s}$ va $v_{03} = 350 \text{ m/s}$ holatlar solishtirilganda, egri chiziqlar o‘zaro siljishi kuzatildi. Bu holat model parametri a koeffitsiyentiga bog‘liq ekanligini tasdiqlaydi.

Eng muhim natija shuki, $v_p \approx 343 \text{ m/s}$ atrofida tizimning optimal ishlash zonasi shakllanadi. Bu zonada mikroneyr ko‘rsatkichini aniqlashda signal barqarorligi yuqori bo‘ladi va o‘lchov xatoligi minimallasadi.


Universal pribor orqali paxta tolasining mikroneyr ko‘rsatkichi, tola zichligi va pishib yetilganlik darajasi akustik muhitda kompleks ravishda aniqlanadi. Kameraga uzatilgan paxta tolasini ma‘lum hajm V va massa m ga ega bo‘lib, uning zichligi $\rho_1 = \frac{m}{V}$ quyidagiga teng:

Paxta tolasining akustik usuldagi asosiy baholash parametri, pishib yetilganlik koeffitsiyenti ϵ hisoblanadi (2-rasm):

$$\varepsilon = 1 - \frac{\rho_1}{\rho} \quad (4)$$

Bu yerda ρ — tolaniq haqiqiy zichligi.

(4) ifodadan ko‘rinib turibdiki, tola zichligi oshgan sari ε kamayadi, ya’ni havo bo‘shliqlari qisqaradi. Bu holat pishib yetilganlik darajasining pasayishi yoki zichlashishni anglatadi.



2-rasm. Tolalarni pishib yetilganlik koeffitsiyentini o‘zgarishi tolalar zichligini turli xil qiymatlarida $\rho_1=0,2 \text{ gr/cm}^3$; $\rho_2=0,3 \text{ gr/cm}^3$; $\rho_3=0,4 \text{ gr/cm}^3$ vaqt bo‘yicha o‘zgarish grafigi

Grafik tahlili shuni ko‘rsatadiki, tola zichligi oshishi bilan pishib yetilganlik koeffitsiyenti ε pasayadi. Eng yuqori qiymatlar $\rho_1=0,2 \text{ gr/cm}^3$ holatida kuzatilgan bo‘lib, bu holatda tolalar orasidagi havo bo‘shliqlari maksimal hisoblanadi.

$\rho_3=0,4 \text{ gr/cm}^3$ holatida esa koeffitsiyent sezilarli darajada kamayib, tolalar zichlashgan muhit hosil bo‘lishi aniqlandi. Bu esa akustik to‘lqinlar tarqalishini cheklab, qarshilikni oshiradi va mikroneyr aniqligiga ta’sir ko‘rsatadi.

Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, pishib yetilganlik koeffitsiyenti tola zichligi va akustik muhit qarshiligi bilan teskari bog‘liq bo‘lib, universal priborda mikroneyr ko‘rsatkichini aniqlashda asosiy diagnostik parametr sifatida hizmat qiladi.

Akustik muhitda tolalarning qarshiligi tovush impedansi orqali baholanadi:

$$z = \rho_0 v_0 \quad (5)$$

bu yerda ρ_0 — muhit zichligi, v_0 — tovush tezligi. G‘ovak muhit uchun zichlik quyidagicha aniqlanadi:

$$\rho_0 = (1 - \varepsilon)\rho + \varepsilon\rho_x \quad (6)$$

(5) va (6) ifodalarni birlashtirsak, akustik qarshilik quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$z = [(1 - \varepsilon)\rho + \varepsilon\rho_x]v_0 \quad (7)$$

Bu model shuni ko‘rsatadiki, tola zichligi ortishi bilan ε kamayadi va akustik qarshilik ortib boradi. Bu esa kamerada tovush to‘lqinlarining tarqalish sharoitini o‘zgartiradi va mikroneyr aniqligiga ta’sir qiladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, (4)–(7) ifodalar asosida tola zichligi, havo ulushi va akustik qarshilik o‘rtasida aniq bog‘lanish mavjudligi aniqlandi. Bu esa universal pribor orqali paxta tolasining pishib yetilganlik darajasini ishonchli baholash imkonini beradi.

Universal pribor ichida paxta tolalarining harakati tashqi kuchlar ta'sirida kechadi. Shu sababli avval tolaga ta'sir etuvchi asosiy kuchlar (og'irlik kuchi, elektrostatik kuch va muhit qarshiligi) hisobga olinib, harakatning umumiy differensial tenglamasi tuziladi:

$$m \cdot \frac{d\mathcal{G}}{dt} = F - mg \quad (8)$$

bu yerda: m -tola massasi; g -erkin tushish tezlanishi;

$$F = \frac{q_1 \cdot q_2}{4 \cdot \pi \cdot \varepsilon_0 \cdot r^2} \text{ -elektrostatik kuch; } q_1, q_2 \text{ -qutblangan maydondagi zaryadlangan}$$

tolalar; ε_0 -elektr doimiysi; r -tolalarni o'tish masofasi.

$$x = \left(\frac{q_1 \cdot q_2}{4 \cdot \pi \cdot m \cdot \varepsilon_0 \cdot r^2} - g \right) \cdot \frac{t^2}{2} + \mathcal{G}_0 \cdot t \quad (9)$$

Ushbu tenglama tola harakatining dinamik holatini ifodalaydi. Keyingi bosqichda u qayta ifodalanib, tezlik v va tezlanish a orasidagi bog'lanishlar kiritiladi. Shu orqali matematik ifoda bosqichma-bosqich soddalashtiriladi va natijada quyidagi differensial tenglamalar tizimi hosil qilinadi:

$$m \cdot \frac{d\mathcal{G}}{dt} = \frac{q_1 \cdot q_2}{4 \cdot \pi \cdot \varepsilon_0 \cdot r^2} - mg \quad (10)$$

$$\mathcal{G} = \left(\frac{q_1 \cdot q_2}{4 \cdot \pi \cdot m \cdot \varepsilon_0 \cdot r^2} - g \right) \cdot t + C_1 \quad (11)$$

(11) tenglama integrallanganda tezlikning vaqtga bog'liq analitik ifodasi olinadi. Integrallash jarayonida integral doimiysi paydo bo'lib, u boshlang'ich shartlar asosida aniqlanadi. Boshlang'ich holat sifatida $t = 0$ da tolaning harakati tinch holatdan boshlanishi yoki ma'lum boshlang'ich tezlikka ega bo'lishi qabul qilinadi. Shu shartlar asosida tezlik ifodasi quyidagi ko'rinishga keltiriladi:

$$\mathcal{G} = \left(\frac{q_1 \cdot q_2}{4 \cdot \pi \cdot m \cdot \varepsilon_0 \cdot r^2} - g \right) \cdot t + \mathcal{G}_0 \quad (12)$$

Keyingi bosqichda olingan tezlik ifodasi vaqt bo'yicha integrallanadi. Bu integrallash tolaning kamera ichidagi siljish qonunini aniqlash imkonini beradi. Natijada tola koordinatasining vaqtga bog'liq o'zgarishi ifodalanib, quyidagi tenglamalar hosil bo'ladi:

$$\frac{dx}{dt} = \left(\frac{q_1 \cdot q_2}{4 \cdot \pi \cdot m \cdot \varepsilon_0 \cdot r^2} - g \right) \cdot t + \mathcal{G}_0 \quad (13)$$

$$x = \left(\frac{q_1 \cdot q_2}{4 \cdot \pi \cdot m \cdot \varepsilon_0 \cdot r^2} - g \right) \cdot \frac{t^2}{2} + \mathcal{G}_0 \cdot t + C_2 \quad (14)$$

(14) tenglikdagi C_2 -integrall doimiysini boshlang'ich shartdan foydalanib aniqlaymiz $t = 0; x = 0$ bundan $C_2 = 0$ aniqlangan qiymatni (14) tenglikka qo'yamiz. Shu tariqa tolaning vertikal harakati to'liq analitik ko'rinishda ifodalanadi:

$$x = \left(\frac{q_1 \cdot q_2}{4 \cdot \pi \cdot m \cdot \varepsilon_0 \cdot r^2} - g \right) \cdot \frac{t^2}{2} + \mathcal{G}_0 \cdot t \quad (15)$$

Shu olingan (15) tenglama asosida tola siljishining vaqtga bog'liq o'zgarishi turli chastotalarda hisoblanadi. Natijada $v_1=100\text{Hz}$, $v_2=150\text{Hz}$ va $v_3=200\text{Hz}$ holatlar uchun $s(t)$ funksiyalari quriladi va ularning dinamik o'zgarishi taqqoslanadi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tolalar harakati akustik va elektrostatik kuchlar o'zaro ta'sirida boshqariladi. So'nish ko'effitsiyenti γ va muhit qarshiligi β ortishi tolalar oqimini sekinlashtiradi, bu esa mikroneyr aniqligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Kamera uzunligi ortishi bilan energiya so'nishi kuchayadi, shuning uchun optimal kamera parametrlarini tanlash muhim hisoblanadi.

Olingan modellar universal priborda tolalarni barqaror oqimda uzatish va mikroneyr ko'rsatkichini ishonchli aniqlash imkonini beradi.

Dissertatsiya ishining **“Paxta tolasining sifat ko'rsatkichlarini aniqlash uchun universal priborning konstruktiv va texnologik parametrlarini aniqlash”** deb nomlangan uchinchi bobida paxta tolasining sifat ko'rsatkichlarini, xususan mikroneyr parametrini aniqlash uchun mo'ljallangan universal akustik priborning konstruktiv va texnologik parametrlari ishlab chiqildi hamda uning ishlash prinsipi, metrologik va ekspluatasion talablari asoslab berildi.


Tadqiqotning birinchi bosqichida priborga qo'yiladigan asosiy talablar tizimlashtirildi. Ushbu pribor paxta tozalash korxonalari laboratoriyalari, tayyorlov maskanlari, seleksiya stansiyalari va to'qimachilik sanoati korxonalarida qo'llanilishi mumkinligi asoslandi. Shuningdek, u nafaqat mikroneyr ko'rsatkichini, balki paxta tolasining chiziqli zichligi va pishib yetilganlik ko'effitsiyentini ham aniqlash imkoniyatiga ega ekanligi ko'rsatildi.

Priborning umumiy konstruktiv tuzilishi ikki asosiy blokdan iborat qilib ishlab chiqildi: akustik o'lchash qismi va mikroprosessorli hisoblash qismi. Akustik blok namunani siqish mexanizmiga ega silindrik kamera, tovush tarqatgich va mikrofondan tashkil topgan bo'lib, elektr-akustik o'zaro ta'sir asosida ishlaydi. Elektron blok esa signalni qabul qilish, kuchaytirish, raqamlashtirish va qayta ishlash vazifalarini bajaradi.

Priborning funksional sxemasi 3-rasmda keltirilgan bo'lib, unda tovush generatori, akustik uzatgich, o'lchash kamerasi, mikrofon va mikroprosessorli hisoblash blokining o'zaro bog'lanishi ko'rsatilgan. Bu sxema priborning umumiy ishlash mantig'ini aniq ifodalaydi.

Ishda priborning asosiy texnik parametrlari ishlab chiqildi. Tovush generatori 150 ± 1 Hz chastotada barqaror ishlaydi. Quvvat kuchaytirgichning chiqish quvvati 4 Vt ni tashkil etadi. Akustik uzatgich 63–6000 Hz diapazonda ishlash qobiliyatiga ega bo'lib, yetarli tovush bosimini ta'minlaydi. Mikrofonning sezgirliги 4 mV/Pa gacha bo'lib, keng chastota diapazonida barqaror signal olish imkonini beradi.


Ishlash prinsipiga ko'ra, 150 ± 1 Hz chastotada generatsiya qilingan sinusoidal signal quvvat kuchaytirgich orqali akustik uzatgichga uzatiladi. Hosil bo'lgan tovush tola namunasi orqali o'tganda uning amplitudasi va energiyasi tolaning zichligi va strukturasi bog'liq ravishda o'zgaradi. Bu o'zgarish mikrofon tomonidan elektr signalga aylantirilib, mikrokontrollerda raqamli qayta ishlanadi va mikroneyr ko'rsatkichi hisoblanadi.



3-rasm. Universal priborning blok-sxemasi

O'lchash kamerasi silindrik shaklda loyihalashtirildi. Uning ichki diametri 40 mm, balandligi 100 mm, tashqi diametri 47 mm etib qabul qilindi. Namuna siqilgan holda kamera balandligi $30,0 \pm 0,1$ mm ni tashkil etadi, massaviy zichlik esa $0,26 \text{ g/sm}^3$ ga teng qilib belgilandi. Bu parametrlar o'lchash natijalarining takrorlanuvchanligini ta'minlaydi.

Akustik maydonni bir tekis taqsimlash maqsadida yuqori va quyi perforatsiyalangan plastinalar ishlab chiqildi. Quyi plastinada 127 ta, yuqori plastinada 91 ta teshik mavjud bo'lib, teshik diametri 1,5 mm ni tashkil etadi. Bu elementlar tovush signalining namuna orqali barqaror o'tishini ta'minlaydi (4-rasm).



4-rasm. Quyi va yuqori perforatsiyalangan plastinalar.

Plunjer mexanizmi namuna zichligini barqaror holatda ushlab turish vazifasini bajaradi. Silindr va plunjer orasidagi texnologik tirqish 0,4–0,5 mm qilib belgilandi. Namuna siqishda qo'ldagi kuch 20 N dan oshmasligi ta'minlangan.

Elektron qayta ishlash qismi signal generatori, kuchaytirgich, analog-raqamli o'zgartirgich, mikrokontroller va indikatsiya tizimidan iborat. Raqamli tizim

mikroneyr ko'rsatkichi, signal amplitudasi va o'lchash vaqti kabi parametrlarni real vaqtda ko'rsatish imkonini beradi.

Mikroneyr ko'rsatkichi signal amplitudasi bilan bog'liq holda kalibrlash tenglamasi orqali aniqlandi. Kalibrlash koeffitsiyentlari davlat standart namunalari asosida ikki nuqtali usulda hisoblandi.


O'lchash diapazoni 2,5–6,0 mikroneyr birligini tashkil etadi. Standart sharoitda o'lchash xatoligi 0,1 mikroneyrdan oshmasligi, tizimli xatolik esa 0,15 mikroneyr chegarasida bo'lishi ta'minlandi.

Kalibrlash jarayonida bo'sh kamerada nol nuqta belgilanib, so'ng standart namunalar asosida koeffitsiyentlar aniqlandi. Olingan qiymatlar mikrokontroller xotirasiga kiritildi. Agar o'lchash natijalari belgilangan xatolikdan chetga chiqsa, qayta kalibrlash amalga oshiriladi.

Pribor konstruksiyasi stol ustiga qo'yib ishlatiladigan ko'chma variantda tayyorlandi. Uning umumiy massasi 12 kg dan oshmaydi, bir o'lchash sikli 30 soniyadan oshmaydi. Bu esa uni ishlab chiqarish sharoitida tezkor diagnostika uchun qulay qiladi.

Paxta tolasining mikroneyr ko'rsatkichini aniqlash uchun mo'ljallangan universal akustik priborning konstruktiv va texnologik parametrlariga ta'sir etuvchi asosiy omillar kompleks tahlil qilindi. Tadqiqotlar o'lchash kamerasi geometrik o'lchamlari, namuna massasi va zichligi, shuningdek tovush tebranishlari chastotasining chiqish signali va mikroneyr ko'rsatkichiga ta'sirini baholashga qaratildi.

Avvalo, tovush tebranishlari chastotasining (f) o'lchash natijalariga ta'siri o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, chiqish signali va mikroneyr ko'rsatkichi orasidagi bog'lanish chastotaga nisbatan notekis o'zgaradi. 50–100 Hz oralig'ida signalning sekin pasayishi, 100–125 Hz atrofida esa keskin o'zgarish kuzatildi. Keyingi 100–200 Hz diapazonida esa signal eksponensial qonuniyatga bo'ysunishi aniqlandi (5-rasm).



5-rasm. Chiqish signalining tovush tebranish chastotasiga bog'liqlik grafigi


Eksperimentlar natijasida turli mikroneyr qiymatlariga ega tola namunalari uchun chiqish signali bilan chastota orasida yuqori aniqlikda approksimatsiyalovchi

bog‘lanishlar olindi ($R^2 \approx 1$). Masalan, ayrim namuna uchun quyidagi regressiya tenglamalari aniqlandi:

$$\begin{aligned}
 U_{5,2} &= -0,0552 f^2 + 6,2244 f + 659,88, & R^2 &= 1 \\
 U_{4,4} &= -0,0445 f^2 + 4,0599 f + 711,36, & R^2 &= 1 \\
 U_{3,5} &= -0,0309 f^2 + 0,8892 f + 817,83, & R^2 &= 1 \\
 U_{3,3} &= -0,0271 f^2 + 0,117 f + 819,0, & R^2 &= 1 \\
 U_{3,1} &= -0,0192 f^2 - 1,439 f + 811,4, & R^2 &= 1 \\
 U_{2,6} &= -0,008 f^2 - 3,1005 f + 770,45, & R^2 &= 1 \\
 U_{5,2} &= 1368,1 e^{-0,006f}, & R^2 &= 0,9993 \\
 U_{4,4} &= 1360,8 e^{-0,007f}, & R^2 &= 0,9997
 \end{aligned}
 \tag{16}$$

Olingan natijalar asosida qurilmaning eng barqaror ish rejimi 150 ± 1 Hz chastota diapazonida ta‘minlanishi aniqlandi. Shu sababli keyingi konstruktiv yechimlarda ushbu chastota ishchi parametr sifatida qabul qilindi.

Ikkinchi bosqichda namuna massasining o‘lchash natijalariga ta‘siri o‘rganildi. Tajribalar 7,5–10,5 g diapazondagi namunalarda, 150 Hz ishchi chastotada o‘tkazildi (6-rasm).



6-rasm. Chiqish signalining parametriga bog‘liqligi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, chiqish signali va mikroneyr ko‘rsatkichi orasida logarifmik bog‘lanish mavjud bo‘lib, massa ortishi bilan signalning eksponensial kamayishi kuzatiladi.

Olingan model quyidagi ko‘rinishda ifodalandi:

$$U = U_0 e^{-\frac{(1-\varepsilon) \cdot C \cdot L}{\varepsilon \cdot Mic}} \quad (17)$$

Bu yerda:

U_0 — namuna bo‘limganda qurilma chiqishidagi signal, mV;


L — o‘lchanayotgan namuna qalinligi (o‘lchash kamerasi balandligiga teng), sm;

C — doimiy koeffitsiyent;

ε — namuna g‘ovakligi.

Bu bog‘lanish asosida namuna massasining o‘lchash aniqligiga ta’siri baholandi. Laboratoriya tarozilarining 0,01 g aniqlikdagi xatoligi mikroneyr ko‘rsatkichiga juda kichik ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi (0,011 Mic dan oshmaydi). Shu sababli ushbu aniqlik amalda yetarli deb topildi.

Uchinchi bosqichda o‘lchash kamerasining geometrik parametrlari tahlil qilindi. Kamera balandligi 3,0–6,0 mm diapazonda o‘zgartirilganda chiqish signali bilan yuqori darajada chiziqli bog‘lanish saqlanishi aniqlandi ($R^2 > 0,99$) (7-rasm).



7-rasm. Chiqish signalining namuna massasiga bog‘liqligi

Natijalarga ko‘ra, kamera balandligining 0,1 mm og‘ishi mikroneyr qiymatida 0,005–0,014 Mic atrofida xatolik keltirib chiqaradi. Shuning uchun konstruksiyada balandlik aniqligi qat’iy nazorat ostida bo‘lishi zarurligi belgilandi.

Shu bilan birga, kamera diametri va ichki geometriyasining barqarorligi ham signalning stabilligiga ta’sir qilishi aniqlandi. Amaliy hisob-kitoblar asosida kamera diametrining ruxsat etilgan og‘ishi 0,039 mm dan oshmasligi belgilandi.

Olingan barcha natijalar asosida qurilmaning optimal konstruktiv parametrlari shakllantirildi:

-ishchi chastota: 150 ± 1 Hz;

- namuna massasi: $8,0 \pm 0,01$ g;
- kamera balandligi: $30,0 \pm 0,1$ mm;
- kamera geometrik aniqligi: $\pm 0,039$ mm;
- o'lchash xatoligi: $\pm 0,05$ Mic dan oshmaydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, barcha asosiy konstruktiv parametrlar to'g'ri tanlanganda mikroneyr ko'rsatkichini aniqlash jarayonida yuqori takrorlanuvchanlik va barqarorlik ta'minlanadi. Eksperimental natijalar regressiya modellari bilan yuqori moslikni namoyon qildi ($R^2 \approx 0,99-1,0$).

Oxirgi bosqichda ishlab chiqilgan konstruksiyaning laboratoriya prototipi tayyorlandi (8-rasm).



8-rasm. Paxta tolasining sifat ko'rsatkichlarini aniqlash uchun tayyorlangan akustik pribori

Qurilmada kalibrlash va o'lchash rejimlari avtomatlashtirilgan bo'lib, signalni qayta ishlash mikrokontroller orqali amalga oshiriladi. Kalibrlash jarayonida nol nuqta va standart namunalar asosida koeffitsiyentlar avtomatik hisoblanadi, bu esa o'lchash aniqligini oshirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiya ishining **“Ishlab chiqarishda sinovlar o'tkazish va iqtisodiy samaradorlikni aniqlash”** nomli to'rtinchi bobida ishlab chiqarish sinovlari natijalari va joriy etilishidan olingan iqtisodiy samara xisobi keltirilgan.

Sinovlar Sirdaryo viloyati Boyavut tumanidagi “Boyovut Cotton Textile” MCHJ to'qimachilik fabrikasi laboratoriyasida o'tkazildi. O'tkazilgan sinovlar davomida paxta tolasini mikroneyr ko'rsatkichi me'yor diapazonida bo'lgan namunalar parallel ravishda ikkita priborda aniqlandi. Qayd etilgan natijalar ruhsat etilgan xatolik $\pm 0,1$ mikroneyr shkalasi etib belgilangan va ushbu shkala diapazoni doirasida bo'ldi.

Namligi 6,75-8,25% oralig'ida bo'lgan 15 dona mahalliy va horijiy seleksion navlardan olingan namunalari sinovdan o'tkazildi (9-10-rasmlar).



9-rasm. Sinov uchun namunani massasini tortish jarayoni



10-rasm. Universal priborda sinov o'tkazish jarayoni.

Sinov natijalaridan aniqlandiki, navlar bo'yicha o'rtacha mikroneyr ko'rsatkichlari 3,96 dan 5,34 gacha o'zgargan. Eng yuqori mikroneyr qiymati Zhohang Mian-88 navida ko'rilgan bo'lib, HVI tizimida 5,34 va universal priborda 5,29 ni tashkil etgan. Eng past ko'rsatkich esa Omad navida kuzatilib, mos ravishda 3,96 va 4,06 ga teng bo'ldi.

Ikki priborda aniqlangan natijalar o'rtasidagi farqlar tahlil qilinganda, ularning aksariyati $\pm 0,10$ mikroneyr birligi chegarasida ekanligi aniqlandi. Eng katta musbat farq esa Omad navida 0,10 birlikni tashkil etgan bo'lsa, eng katta manfiy og'ish esa Ravnaq-1 navida $-0,06$ va Zhohang Mian-88 navida $-0,05$ birlikni tashkil etdi. Namangan-77 navida esa farq deyarli ko'rinmasdan, o'rtacha qiymatlar orasidagi tafovut $-0,01$ ni tashkil etdi.

Kichik hajmli resurstejamkor, universal priborning amaldagi Metroteks rusumli priborning o'rniga joriy qilishdan, bir dona loyihadagi paxta tolasini mikroneyr ko'rsatkichini aniqlovchi pribor o'rnatish hisobiga yillik 194,1 mln. so'm iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

XULOSALAR

1. Hozirgi kunda O'zbekistonda HVI, Textechno va LPS-4 kabi tizimlar asosida paxta to'qimachilik mahsulotlarini texnik jihatdan tahlil qiladigan korxonalar va laboratoriyalar mavjud. Ushbu yuqori aniqlikka ega uskunalar fabrikalar darajasida paxtaning fizik-mexanik xususiyatlarini (tolaning uzunligi, mustahkamligi, mikroneyr va h.k.) doimiy ravishda aniqlash imkonini beradi.

2. Amaliyotda paxtani qabul qilishda va saqlashda klaster va qabul maskanlarida fermer xo'jaliklaridan kelib tushayotgan mahsulotni tez va qulay holda sifat jihatdan baholash imkoniyati hali yetarli darajada ta'minlanmagan.

3. Paxtani qabul qilish jarayonida mikroneyr va pishib yetilganlik ko'rsatkichlarini joyida, mobil sharoitda aniqlay oladigan, klimak shartlarga mos va arzon texnik vositalarga ehtiyoj katta.

4. Tolalarni sifat ko'rsatkichlarini aniqlashda $k_p = 0.6 - 1.0$ oraliqda o'zgarishini inobatga olsak tolalar zichligi $\rho_3 = 1,6 \text{ gr/cm}^3$ bo'lganda hamda chastotali faza tezligini $\vartheta_{02} = 340 \text{ m/s}$ qiymatlarida pishib yetilganligini aniqlash imkonini beradi.

5. Akustik usulda kameradagi bosimning o'zgarishi $\Delta P = 5 \div 8 \text{ Pa}$ oraliqda o'zgarishi paxta tolalarini mikroneyr ko'rsatkichini aniqlash imkonini beradi.

6. Eng yuqori chastotada eng qisqa va tez masofani bosib o'tadigan paxta tolalari mikroneyr ko'rsatkichi ko'rsatilgan va shu asosda samaradorligining chastotasiga qarab aniqlash imkonini beradi. Shunday ekan paxta tolalarini vertikal holatdagi harakati chastotasining $v_3 = 20 \text{ Hz}$ qiymatida eng qisqa vaqtda tez masofani bosib o'tishi grafikda ko'rsatilgan.

7. Universal priborning konstruktiv va texnologik parametrlari asoslanib, o'lchash kamerasining ichki diametrini 40 mm, siqilgan namuna balandligini $30 \pm 0,1 \text{ mm}$ va massaviy zichlik $0,26 \text{ g/sm}^3$ qilib qabul qilinishi akustik signalni barqaror o'tishini ta'minlashi hamda o'lchash natijalarining takrorlanuvchanligini oshirishi aniqlanib, akustik tizim uchun $150 \pm 1 \text{ Hz}$ chastotali signaldan foydalanish maqbul ekanligi belgilandi.

8. Paxta tolasini namunasidan o'tgan akustik signal amplitudasi bilan mikroneyr ko'rsatkichi orasidagi bog'lanish mavjudligi asosida priborni kalibrlash uslubi ishlab chiqildi. Kalibrlash koeffitsiyentlarini davlat standart namunalari yordamida aniqlash va ularni mikrokontroller xotirasiga kiritish orqali mikroneyr ko'rsatkichini 2,5–6,0 mic diapazonida avtomatik ravishda aniqlash imkonini ta'minlandi.

9. Taklif etilayotgan qurilmaning joriy etilishi paxta xom ashyosi va paxta tolasini qabul qilish va qayta ishlash jarayonida sifat nazoratining aniqligi va samaradorligini oshiradi, uskunalarning ishlashini texnik nazorat qilish va ishlab chiqarilgan mahsulotlar sifatini boshqarish samaradorligini oshirish orqali ishlab chiqarilgan tola sifatini yaxshilaydi va shu bilan tola sifati bo'yicha shikoyatlar sonini kamaytiradi.

10. Ishlab chiqilgan kichik hajmli resurstejamkor, universal priborning amaldagi Metroteks rusumli priborning o'rniga joriy qilinadigan bo'lsa, bir dona loyixadagi paxta tolasini mikroneyr ko'rsatkichini aniqlovchi pribor o'rnatish hisobiga elektr energiyasini 15 barobar kam iste'mol qilish va amaldagi pribor narxining pastligidan yillik 194,1 mln. so'm iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ ЦЕНТР ЗНАНИЙ И ИННОВАЦИЙ В СЕЛЬСКОМ
ХОЗЯЙСТВЕ**

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.08/27.12.2025.Т.14.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ
ИНСТИТУТЕ ВОЛОКНИСТЫХ КУЛЬТУР**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ ВОЛОКНИСТЫХ
КУЛЬТУР**

МАННОПОВ БЕХЗОД АБДУМАЛИКОВИЧ

**РАЗРАБОТКА УНИВЕРСАЛЬНОГО ПРИБОРА ДЛЯ ИЗМЕРЕНИЯ
ПОКАЗАТЕЛЯ МИКРОНЕЙР, ЗРЕЛОСТИ И ЛИНЕЙНОЙ ПЛОТНОСТИ
ХЛОПКОВОГО ВОЛОКНА ПО МЕЖДУНАРОДНОЙ
КЛАССИФИКАЦИИ**

05.06.02 – «Технология текстильных материалов и первичная обработка хлопка-сырца»

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан за № В2025.2.PhD/T5700

Диссертация выполнена в Научно-исследовательском институте волокнистых культур.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета при «Научно-исследовательский институте волокнистых культур» <http://teiti.uz/> и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель: Ахмедов Акмал
кандидат технических наук, старший научный сотрудник

Официальные оппоненты: Джамолов Рустам Камолитдинович
доктор технических наук, профессор

Маруфханов Бекзадхан Хайруллаевич
доктор философии по техническим наукам

Ведущая организация: Научно-исследовательский институт натуральных волокон Узбекистана

Защита диссертации состоится 24 июля 2026 года в 15⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.08/2025.27.12.T.14.01 при научно-исследовательском институте волокнистых культур по адресу: 111202, Ташкентская обл., Кибрайский район, ул. Ботаника, УЗПИТИ, НИИССАВХ Административное здание Научно-исследовательского института селекции, семеноводства и агротехнологий выращивания хлопчатника, 4-этаж, кабинет 430. Тел.: (+99871) 207-04-03, факс: (+99871) 256-04-21. e-mail: <https://www.teiti.uz>.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре научного исследовательского института волокнистых культур (зарегистрирована за №52). Адрес: 111202, Ташкентская обл., Кибрайский район, Ботаника, ул. УЗПИТИ, НИИССАВХ. Тел.: (+99871) 207-04-03, факс: (+99871) 256-04-21.

Автореферат диссертации разослан “14” июля 2026 года
(протокол реестра № 52 от “14” июля 2026 года.)



К. Жуманиязов
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.т.н., проф.

М.Р. Муминов
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней,
PhD, с.н.с.

Р.Ш. Сулаймонов
Председатель Научного семинара
при научном совете по присуждению
ученых степеней, д.т.н., проф.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и значимость темы диссертации. Сельское хозяйство и связанные с ним перерабатывающие отрасли играют одну из ведущих ролей в обеспечении экономической стабильности в мире. Качество хлопкового волокна — основного сырья для текстильной промышленности (в том числе в глобальном масштабе) — требует продвижения национального бренда и наращивания экспортного потенциала экономики страны. В связи с этим важной задачей является научно обоснованная оценка показателей качества хлопкового сырья и волокна, а также использование современных приборов для их определения.

Во всем мире ведутся научно-исследовательские и опытно-конструкторские работы по созданию новых научно-технических решений в области ресурсосберегающих технологий и технических средств для определения качества хлопкового волокна. В этой сфере применяется ряд передовых систем, таких как HVI (High Volume Instrument), Spinlab, Textechno, Premier ART и USTER AFIS PRO. Эти приборы с высокой точностью измеряют такие показатели хлопкового волокна, как микронейр, длина, зрелость и другие. Однако особое внимание уделяется тому, что их массовому внедрению препятствуют высокая стоимость, сложность технического обслуживания, зависимость от импортных запасных частей, а также несовместимость с местными климатическими условиями и особенностями эксплуатации.

Наша республика входит в число ведущих мировых производителей хлопка; принимаются комплексные меры по повышению качества волокна до высокого уровня, и уже достигнуты определенные результаты. Важные задачи определены в Указе № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы». Реализация этих задач, в частности, направлена на обеспечение устойчивости национальной экономики и продолжение промышленной политики, предусматривающей увеличение объема промышленного производства в 1,4 раза, в том числе объема продукции текстильной промышленности – в 2 раза. ...

Создание лабораторной системы, а также технически и технологически модернизированного оборудования, отвечающего международным требованиям к оценке физико-технологических показателей хлопкового волокна, имеет для страны важное значение.

Кроме того, данное диссертационное исследование способствует реализации задач, определенных в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-308 от 7 июля 2022 года «О дополнительных организационных мерах по повышению урожайности хлопчатника и внедрению науки и инноваций в хлопководство», а также в других нормативно-правовых актах, касающихся данной сферы.

¹ Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы».

